

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOVA K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8
Bosma tabog'i:
Ofset bosma: Ofset qog'ozi.
Adadi: 10 nusxa
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

T.Egamberdiyeva	
Qiz bolalarda ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	7
R.Safarova, M.Abdullayev	
Etnopedagogik qadriyatlar vositasida o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish usullari va metodlari	11
J.Obidov	
Talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasiga oid bilimlarini takomillashtirishning pedagogik mazmuni va amaliyotdagi holati	16
F.Madraximova	
Ta'limni axborotlashtirish sharoitida talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida	21
X.Tojiboyeva	
O'smir yoshdagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	26
	IQTISODIYOT
M.Yuldasheva, A.Kolkanatov	
Oilaviy dam olish madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy va madaniy marketing	29
S.Ismoilova	
Budjet mablag'laridan foydalanishning samaradorligini ifodalaydigan ko'rsatkichlar tizimi	34
	FALSAFA, SIYOSAT
A.Yuldashov	
Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar himoyasini ta'minlashda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning tutgan o'рни	39
D.Raxmatova	
Qatag'onlik siyosatining aholi ijtimoiy-ma'naviy hayotiga salbiy ta'siri (xx asrning 40-50 yillar misolida)	47
	TARIX
B.Matboboyev, A.Aloxunov	
Farg'ona vodiysida ilk urbanizatsiya jarayonlari	53
S.To'raxo'jayev	
Sovet hokimiyati tomonidan Turkiston ASSR da amalga oshirilgan bolalar evakuatsiyasi va reevakuatsiyasi tarixidan	58
R.Ahmedov	
Turkiston ASSRda savodsizlikni tugatish bo'yicha dastlabki chora-tadbirlarning yo'lga qo'yilishi (1918-1922-yillar)	63
Sh.Jumayev	
Farg'ona viloyatidagi katolik jamoalarining faoliyati: tarix va bugungi kun	70
I.Xo'jaxonov	
Amir Temur davri shaharsozligida turli o'zliklarning namoyon bo'lishi	74
A.Sarsenbayev, N.Turambetov	
Yevropada islom huquqi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili (XVIII-XXI)	78
R.Akbarov	
Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek milliy matbuoti sahifalarida mahalliy resurslardan foydalanish masalasi	85
R.Murodaliyev	
So'ngak mozor-qo'rg'onining davrlashtirilishi haqida	92
N.Turambetov	
Yozef shaxt - islom huquqshunosligi bo'yicha taniqli yevropalik sharqshunos olim	98
X.Ergasheva	
1917-1924 yillarda Farg'ona vodiysida neft sanoati tarixi	103
Sh.Xonimov	
Yoshlar ijtimoiy faolligi va dunyoqarashi shakllanishiga globallashtirish jarayonlarining ta'siri	109

**TURKISTON ASSRDA SAVODSIZLIKNI TUGATISH BO'YICHA DASTLABKI CHORA-TADBIRLARNING YO'LGA QO'YILISHI
(1918-1922-yillar)**

**ПРОВЕДЕНИЕ ПЕРВИЧНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ ПО ЛИКВИДАЦИИ НЕГРАМОТНОСТИ В
ТУРКЕСТАНСКОЙ АССР
(1918-1922 гг.)**

**CARRYING OUT PRIMARY MEASURES TO ELIMINATE ILLITERACY IN TURKESTAN
AUTONOMOUS SOVIET SOCIALIST REPUBLIC
(1918-1922)**

Ahmedov Rahmonjon Rasulovich¹

¹Ahmedov Rahmonjon Rasulovich

– Qo'qon Davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada sovet hukumatining Turkiston ASSRda katta yoshdagi aholi o'rtasida o'tkazgan savodsizlikni tugatish chora-tadbirlari 1918-1922-yillar davriy chegarasida tahlil etish maqsadi belgilangan. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda, maqolada Turkiston ASSRdagi savodsizlikka qarshi kurashning dastlabki tajribasi sovet hukumati tomonidan muammoni hal qilishning o'ziga xos strategiyasini ishlab chiqish uchun qay tariqa qo'llangani ko'rsatib o'tildi. XX asr 20-yillari birinchi yarmida Turkiston ASSRda savodsizlikni tugatish jarayonlari tanqidiy o'rganilib, bu jarayonda yuzaga kelgan muammo va kamchiliklar aniqlandi. Shuningdek, 1918-1922-yillarda Turkiston ASSRda savodsizlikka qarshi kurashda qanday yangi tendensiyalar paydo bo'lgani ochib berildi. Maqolada tarixiy-xronologik, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, miqdoriy tahlil, mazmuniy tahlil va fanlararo yondashuv usullaridan foydalanildi. Savodsizlikni tugatish ishlarining Turkiston ASSRda joriy etilishi va uning jarayonlari, savodsizlikni tugatish maktablarini tashkil etish, maktablar moddiy-texnik bazasi va mutaxassis kadrlar ta'minotidagi muammolar va ularni hal etilishiga doir ma'lumotlar umumlashtirilgan, savodsizlikni tugatish ishlarining Turkiston ASSRga xos jihatlari aniqlangan.

Аннотация

Цель данной статьи заключается в анализе мер, предпринятых советским правительством в Туркестанской АССР по ликвидации неграмотности среди взрослого населения в 1918-1922 годы. В статье показано что, как первоначальный опыт борьбы с неграмотностью в Туркестанской АССР был использован советским правительством для выработки конкретной стратегии решения проблемы. Критически изучен процесс ликвидации неграмотности в Туркестанской АССР в начале 20-х годов XX века, выявлены проблемы и недостатки в этом процессе. Также, выявлены новые тенденции возникшие в борьбе с неграмотностью в Туркестанской АССР в 1918-1922 гг. В статье использованы методы историко-хронологический, сравнительный анализ, статистический анализ, количественный анализ, семантический анализ и междисциплинарного подхода. Обобщены сведения о внедрении работ и ликвидации неграмотности в Туркестанской АССР, о создании школ ликвидации неграмотности, проблемах материально-технической базы и кадрового обеспечения школ, их решении.

Abstract

The purpose of this article is to analyze the measures taken by the Soviet government in the Turkestan ASSR to eliminate illiteracy among the adult population in 1918-1922. The article shows how the initial experience of fighting illiteracy in the Turkestan ASSR was used by the Soviet government to develop a specific strategy for solving the problem. The process of eradicating illiteracy in the Turkestan Republic in the early 20s of the twentieth century was critically studied, problems and shortcomings in this process were identified. Also, new trends that emerged in the fight against illiteracy in the Turkestan ASSR in 1918-1922 were revealed. The article uses the methods of historical-chronological, comparative analysis, statistical analysis, quantitative analysis, semantic analysis and interdisciplinary approach. Information on the implementation of works and the elimination of illiteracy in the Turkestan Autonomous Soviet Socialist Republic, on the creation of schools for the elimination of illiteracy, the problems of the material and technical base and staffing of schools, and their solution are summarized.

Kalit so'zlar: Turkiston ASSR, savodsizlikni tugatish, "madaniy inqilob", bolsheviklar hokimiyati, savodsizlikni tugatish maktablari, mafkura, sovet maktablari, alifbo, qishloq aholisi.

Ключевые слова: Туркестанская АССР, ликвидация неграмотности, «культурная революция», большевистская власть, школы ликвидации неграмотности, идеология, советские школы, алфавит, сельское население.

Key words: Turkestan ASSR, elimination of illiteracy, "cultural revolution", Bolsheviks government, schools for the elimination of illiteracy, ideology, Soviet schools, alphabet, rural population.

KIRISH

Ma'lumki, sovet hukumati va kommunistik partiya sotsialistik jamiyatni barpo etish yo'nalishini amalga oshirish jarayonida "inqilobiy yangilanish"ning asosiy sharti sifatida madaniy qurilishni kun tartibiga chiqargan, keng qamrovli madaniy dastur sotsialistik bunyodkorlik strategiyasining tarkibiy qismini tashkil etgan edi. "Sotsialistik qurilish" yo'nalishidagi madaniy o'zgarishlarning nazariy-metodologik asoslari marksizm asoschilari tomonidan ishlab chiqilgan. K. Marks va F. Engels birinchilardan bo'lib, "madaniyat – tarixiy kategoriyadir va uning rivojlanishi tarixiy jarayonni tashkil etadi, madaniyatning darajasi va roli ishlab chiqarishni rivojlantirish bilan bog'liq" deya ta'riflagan edilar.

Afsuski, sotsialistik qurilish nazariyasi va amaliyotida yo'l qo'yilgan strategik xatolar tufayli Oktyabr to'ntarishidan keyingi dastlabki yillarda xo'jalik va madaniy qurilish jabhasida qo'pol xatolar va chetga chiqishlar sodir bo'ldi. Bu madaniy o'zgarishlarning ob'yektiv rivojlanishiga to'sqinlik qildi va uni to'xtatib qo'ydi. "Madaniy inqilob"ning nazariy asoslarini ishlab chiqish bolsheviklar idoiysi Lenin tomonidan 1917-yil Oktyabr to'ntarishidan ancha avvalroq boshlangan edi. Lenin shunga amin ediki, xalq hayotida tub o'zgarishlarga erishish faqat sotsialistik prinsiplarga asoslangan yangi jamiyatda, kishilar o'rtasida ijtimoiy tenglik ta'minlangan sharoitdagina mumkin edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Sovet tarixshunosligida "madaniy inqilob" masalasini tizimli ravishda ilmiy tahlil etish, jumladan, umumiy ta'lim va savodsizlikni tugatishni bir-biriga bog'liq muammo sifatida tadqiq etuvchi asarlar 1940 yillarning ikkinchi yarmidan e'tiboran yuzaga kelgan. Dastlabki shunday asarlar qatorida I.S. Smirnov monografiyasini ko'rsatish mumkin [1]. Muallif o'z asarida davlat hujjatlariga asoslangan holda, savodsizlikni tugatish bo'yicha davlat siyosatining kelib chiqishi, xususan, savodsizlikka qarshi kurashning ilk davrlarini tadqiq etgan.

XX asrning 50-yillari boshida bu mavzuga doir bir qator umumlashtiruvchi asarlar yuzaga keldi [2.3.4.5.6]. Ular orasida eng ahamiyatli M.P. Kimning monografiyasi hisoblanadiki, unda SSSRdagi madaniy qurilish va savodsizlikni tugatish muammosining yangi jihatlarini tadqiq etdi. Muallif SSSRda XX asrning 30-yillarigacha aholining salmoqli qismi qishloqlarda yashagani va bu aholining ko'pchiligi savodsiz bo'lgani bois, madaniy qurilish va savodsizlikni tugatish kampaniyasi dehqonlar uchun katta ahamiyatga ega bo'lganini asoslagan. Ayni paytda M.P. Kim sovet tarixshunoslik fanida birinchi marta ayollar savodsizligini tugatishning o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgani haqida chuqur asosli xulosalarni ilgari surdi. Uning monografiyasi muhim hujjat va arxiv materiallarini o'rganishga asoslangan bo'lib, asarda bu hujjatlar birinchi bor ilmiy muomalaga kiritilgan.

XX asrning 40-50-yillarida A.M. Ivanova, M. Zinovev, D.Y. Elkinalarning bir qator yirik asarlari nashr etildi [7.8.9]. Bu asarlar alohida jarayonlarning yakuniy natijalarini umumlashtiruvchi xarakterdagi tadqiqotlar bo'lib, ularda SSSRdagi savodsizlikni tugatish va sotsialistik ruhdagi xalq ta'lim tizimini tashkil etishning yakuniy natijalari baholangan.

"Madaniy inqilob" lenincha dasturining sinfiylikka asoslanganining oddiy xalq uchun jozibador bo'lgan qoidalari, qandaydir samarali g'oyalari mavjud bo'lganini e'tirof etish mumkin. Xususan, unda barcha mehnatkashlar uchun maktablarda bepul va majburiy ta'lim olish huquqi ta'minlanishi haqidagi g'oyalar bor edi. Ammo, aslida, bu lenincha qoidalarda hech qanday yangilik yo'q edi. Undan ancha ilgariroq Evropa va Sharqning taniqli ma'rifatparvarlari keng xalq ommasi ta'limi va savodxonligining gumanistik g'oyalarini shakllantirgan edilar. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda juda salmoqli darajada ma'rifatparvarlik ishlari olib borilgan, mahalliy jadidlar sa'y-harakati bilan ko'pincha ularning mablag'lari hisobida ko'plab umumta'lim maktablari ochilgan, bu maktablar uchun zamonaviy darsliklar tayyorlangan, o'quv-uslubiy adabiyotlar nashr etilgan. Eng ahamiyatli, bu maktablarga mahalliy aholining barcha qatlamlari qamrab olinishi ko'zda tutilgan edi.

Biroq, bolsheviklar rahbarligidagi sovet hukumati Turkistondagi madaniy jarayonlardagi bu kabi olijanob gumanistik g'oyalarni utopiyaga asoslangan markscha g'oyalar doirasiga siqib, ularning mazmunini va mohiyatini ko'p jihatdan buzib ko'rsatishga urindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

XX asr 20-yillari boshida Turkistonda madaniy qurilish ishlari xalq xo'jaligi vayron bo'lgan va bolsheviklar ataylab boshlab bergan sinfiy kurash keskinlashgan murakkab sharoitda olib borildi.

TARIX

Bu davrda Turkiston madaniy hayoti o'ziga xos ziddiyatli, bir-birini inkor etuvchi, salbiy va ijobiy holatlarning o'zaro kurashi tarzida namoyon bo'ldi. Shuning uchun ham bu davrdagi ma'naviy-mafkuraviy holat Turkistonda o'sha yillarda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalarda ro'y berayotgan murakkab jarayonlar bilan hamohang bo'lgan edi [10, 334].

Turkiston ASSR va keyinchalik O'zbekiston SSRdagi madaniy qurilishning muhim tarkibiy qismlaridan va yo'nalishlaridan biri sifatida "keng xalq ommasi o'rtasidagi savodsizlikni tugatish" belgilandi. Savodsizlikni tugatish konsepsiyasi sovet davlati rahbariyati tomonidan ijtimoiy muammo sifatidagina emas, balki, o'ta muhim siyosiy hamda iqtisodiy muammo sifatida ham kun tartibiga qo'yildi. Ayni paytda umumiy savodxonlikka erishish bolsheviklar oliy rahbariyati tomonidan ijtimoiy fikrlarni kommunalashtirishning, shu jumladan "mehnatkash omma"ni sotsializm qurish ishiga jalb etishning eng muhim vositasi sifatida qabul qilindi. Bunda ibtidoiy savodxonlikni egallash kommunistik siyosiy dunyoqarashni shakllantirishning asosiy sharti sifatida baholandi.

Respublikaning siyosiy rahbariyati va sovet hukumati savodsizlikni tugatish yo'nalishini amalga oshirar ekan, savodsiz kishilar jamiyatdan tamoman ajralib qolishi, ular sotsializm qurish yo'lidagi ommaviy-siyosiy hayotdan chetda qolib ketishi haqidagi shiorlarni ilgari surdi. Boshqacha aytganda, savodsizlikni tugatish tub joy aholini milliy madaniyatining samarali qatlamlaridan uzoqlashtirish va ulardan yangi sotsialistik tuzumning muhim murvatlarini shakllantirish usullaridan biri bo'ldi. Qolaversa, savodsizlikni tugatish kampaniyasining faol mafkuraviy targ'ibot ishlari bilan birga olib borilishi ham bejiz emasdi.

Kommunistik partiya Turkiston ASSRda ham siyosiy-ma'rifiy targ'ibot va tashviqot yordamida keng xalq ommasini o'z tarafiga og'dirish, aholining kambag'al qatlamlarini badavlat qatlamlarga qarshi qo'yishga harakat qildi. Sovet rahbariyati "savodsizlikka qarshi kurash" e'lon qilib, bu kampaniyani tashkil etishga sovet davlatining butun hokimiyat tuzilmalarini va siyosiy tashkilotlarini keng safarbar qildi. Savodsizlikni tugatish bo'yicha faol harakatlar butun mamlakatda, jumladan Turkiston ASSRda ham avj oldirildi. 1918-yildayoq Turkiston respublikasining turli shaharlarida katta yoshdagilar uchun mo'ljallangan dastlabki rus va milliy maktablar ochilgan edi. Turkiston ASSR Maorif Xalq komissarligining 1918-yil 26-iyundagi ko'rsatmasiga ko'ra, o'lkadagi har bir shahar va qishloqlarda katta yoshdagilar uchun savodsizlikni tugatish kurslari tashkil etilishi shart deb belgilangan edi [11, 9]. Ta'kidlab o'tish zarurki, ilk bosqichda katta yoshdagi aholi uchun mo'ljallangan milliy maktablarni tashkil etish va faoliyatini yo'lga qo'yishda jadid namoyondalari faol ishtirok etdilar. Bu maktablarni ochish tashabbuskorlari orasida Munavvar Qori, Abdulla Avloniy va boshqa bir qator taniqli jadidchilik harakati vakillari bor edi. Ular tomonidan 1918-yilda 13 ta katta yoshdagilar maktabi tashkil etilgan edi [12, 34-35].

1918-yilning 26-dekabrida RSFSR Xalq Komissarlari Sovetining "RSFSR aholisi o'rtasida savodsizlikni tugatish to'g'risida" dekreti e'lon qilindi. Unda RSFSRning 8 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan, o'qish va yozishni bilmaydigan barcha aholisi xoxishiga ko'ra o'z ona tilida yoki rus tilida savod chiqarishi majburiy qilib qo'yildi. RSFSR Maorif Xalq Komissarligi va uning joylardagi organlariga barcha savodli aholi vakillarini mehnat majburiyati nuqtai nazaridan savodsizlikni tugatish ishlariga jalb etish huquqi berildi. Dekretda belgilangan majburiyatlarni bajarishdan bo'yin tovlaganlar va savodsizlikni tugatish tadbirlariga to'sqinlik qilganlar jinoiy javobgarlikka tortilishi ko'rsatildi [13, 12].

1918-yil dekabr oyi oxirlarida yuqoridagi butunrossiya dekretiga muvofiq Turkiston ASSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Komiteti ham avtonom respublika hududida katta yoshdagi aholining umumiy majburiy savodxonlik ta'limini tashkil etish bo'yicha dekreti chiqarildi. Dekretga muvofiq 17 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan barcha savodsizlar davlat maktablarida yoki savodsizlikni tugatish kurslarida savodini chiqarishlari shart edi [14].

Turkiston ASSRda savodsizlikni tugatish ishlarini tashkil etishning dastlabki bosqichida savodsizlikni tugatish bo'yicha ishlar asosan shaharlarda olib borildi. Bunda ham butun e'tibor asosan evropalik aholi vakillari o'rtasida savodsizlikni tugatish maktablari va kurslarini tashkil etishga qaratildi. Savodsizlikni tugatish harakatining ko'proq siyosiy jihatlariga e'tibor bergan Lenin RKP(b) Markaziy Komiteti Turkiston byurosi (Turkbyuro)ga maxsus xat yuborib, unda Turkiston Respublikasining tub joy aholisi orasida sovet hukumatining tayanchi hisoblangan "musulmon kambag'allari"ni savodli qilish bo'yicha tizimli ishlarni yo'lga qo'yish zarurligini alohida ta'kidladi [15, 316]. Markaziy Sovet hokimiyatining Turkistondagi filiali hisoblangan Turkbyuro va Turkkomissiya

a'zolari lenincha ko'rsatmalarni amalga oshirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'ra boshladi. Lekin, savodsizlikni tugatish ishlari yana avvalgidek sovetlashtirilgan shahar joylarida olib borila boshladi. Aholining asosiy qismi jamlangan qishloqlarda esa sovet hokimiyati va uning yangicha tadbirlari ko'proq ramziy mazmunga ega edi. Chunki, o'lkada davom etayotgan sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat sharoitida aksariyat tuman va qishloqlarda bolsheviklar hukumati hech qanday ta'sirga ega emas edi. Faqatgina, qurol kuchi bilan bolsheviklar tartiboti o'rnatilgan qishloq joylaridagina asta-sekinlik bilan siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlar yo'lga qo'yila boshladi.

1918-1920-yillarda "sovet tipidagi" bir qator yangi madaniy-oqartuv muassasalari ochildi. 1920-yilning oxirlarida Turkistonda 107 kutubxona, 97 klub, 76 qizil choyxona, 172 qiroatxona mavjud bo'lgan. Aholi o'rtasidagi savodsizlikni yoppasiga tugatish tadbirlarida madaniy-oqartuv ishlarining baland ovoz bilan o'qib berish formalari keng yoyildi. Ovoz chiqarib o'qish choyxonalarida, bozorlarda va boshqa jamoat joylarida yo'lga qo'yildi [16, 251].

1920-yil iyun oyida RSFSR Maorif Xalq Komissarligi huzurida Savodsizlikni tugatish bo'yicha Butunrossiya Favqulodda komissiyasi tashkil etilib, uning zimmasiga katta yoshdagilar savodini chiqarish uchun tashkil etilgan maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha umumiy rahbarlik qilish, savod chiqarishi zarur bo'lgan aholi qatlamlarini maktablarga jalb etilish holatini nazorat qilish vazifalari yuklatildi. Shu yilning sentyabr oyida Turkiston ASSRda ham Savodsizlikni tugatish bo'yicha Favqulodda komissiya tashkil qilindi. Bu kabi komissiyalar Turkistonning barcha oblast, uyezd va shaharlarida ham tashkil etildi. Bu komissiyalar oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi: 1) savodsizlikni tugatish maktablari uchun pedagogik kadrlar tayyorlash; 2) milliy tillardagi o'quv qo'llanmalari tayyorlash; 3) shahar va qishloqlardagi savodsizlarni ro'yxatga olish; 4) katta yoshdagi mavjud savodsiz aholi vakillarini savod chiqarish maktablariga jalb etishni ta'minlash [17, 117-118].

1920-yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish natijalariga ko'ra, Turkiston ASSRning aholisi 5 221 963 kishi bo'lib, ulardan eng ko'p sonlilari o'zbeklar (2 050 775 kishi) va qozoqlar (1 091 925 kishi) bo'lgan. Shuningdek, respublika hududlarida O'rta Osiyoning boshqa xalqlari vakillari – 522 292 nafar qirg'izlar, 399 912 nafar tojiklar, 266 681 nafar turkmanlar, 75 334 nafar qoraqalpoqlar istiqomat qilgan. Bular bilan birga, respublikada ruslar, ukrainlar, beloruslar, nemislar va boshqa etnos vakillari ham yashagan [18, 19].

1920-yil 17-dekabrda Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Soveti "Savodsizlikni tugatish to'g'risida" dekret chiqardi. Bu dekretga ko'ra Turkiston respublikasining 8 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan fuqarolari o'qish va yozish uchun ta'lim olishlari shart edi. Mazkur dekret 1918-yil 26-dekabrda RSFSR dekretidan birmuncha farqli jihatlariga ega bo'lib, unda savodsizlikni tugatishga jalb etiladiganlarning yuqori yoshi 40 yoshgacha pasaytirilgan, shuningdek, savodsizlar rus tilida yoki boshqa mahalliy (o'zbek, tojik, qozoq, turkman, qirg'iz va boshqa) tillarda savod chiqarishlari mumkin edi. Savod chiqaruvchi katta yoshdagi aholi vakillari uchun ish vaqti ularning ish haqlari saqlangan holda 2 soatga qisqartirildi. Turkiston ASSR dekretida individual ravishda savod chiqaruvchilarni rag'batlantirishga doir alohida punkt ham bo'lib, mustaqil ravishda o'qish va yozishni o'rganganlar uchun maxsus mukofot berilishi ko'zda tutilgan.

Savod chiqarish quyidagilarni o'zi ichiga olishi lozim edi: 1) o'qishni o'rganish; 2) yozishni o'rganish; 3) hisoblashni o'rganish. Savod maktablarida o'qish muddati yevropa tillari uchun – 2-3 oy, mahalliy tillar uchun – 3-6 oy etib belgilandi [19].

1920-yilning may oyida Toshkentning Eski shahar qismida savodsizlikni tugatish maktablari uchun o'qituvchilar tayyorlaydigan Lenin nomli 25-son 3 oylik kursning faoliyat olib borish smetasi quyidagicha belgilangan: 1) parta – 105 dona, bittasi 21 so'mdan jami 2205 so'm; 2) sinf doskasi – 7 dona, bittasi 25 so'mdan jami 175 so'm; 3) temir pechka – 7 dona, bittasi 20 so'mdan jami 140 so'm; 4) stol – 7 dona, bitasi 5 so'mdan jami 35 so'm; 5) stullar – 7 dona, bittasi 10 so'mdan 70 so'm; 6) lampa – 7 dona, bittasi 10 so'mdan jami 70 so'm; 7) o'tin – 420 pud, bir pudiga 50 tiyindan jami 210 so'm; 8) kerosin – 60 so'm; 9) o'qituvchilar uchun ish haqi – 4 nafar o'qituvchining har biriga 60 so'mdan jami 720 so'm; Umumiy harajatlar 3685 so'm [20, 82].

Savodsizlikni tugatish ishlarini o'tkazish uchun TASSR Xalq Komissarlari Soveti tomonidan 1920-yil 20-noyabrda e'lon qilingan dekretga muvofiq Turkiston Siyosiy Maorif Soveti (Turkpolitprosvet) huzurida Savodsizlikni tugatish bo'yicha Turkiston Favqulodda Komissiyasi faoliyat ko'rsata boshlagan. Komissiya tarkibi 9 kishidan iborat bo'lib, ular: 1) Rais –

TARIX

turkpolitprosvet vakili, 2) Turkiston kompartiyasi MK Tashviqot va xotin-qizlar bo'limi vakili, 3) Turkiston komsomoli MK vakili, 4) "Qo'shchi" ittifoqi MK vakili, 5) Butunittifoq Kasaba uyushmalari Soveti Turkiston byurosi vakili, 6) SEKTRAN* Turkiston byurosi vakili, 7) Bosh militsiya vakili, 8) Turkiston Siyosiy boshqarmasi vakili, 9) Yustitsiya komissarligi vakili [21, 206].

Savodsizlikni tugatish bo'yicha Turkiston favqulodda komissiyasi (STTFK) Turkiston Siyosiy maorif soveti (Turkpolitprosvet) qoshida, uning bo'limi maqomida faoliyat olib borgan. STTFK raisi "Turkpolitprosvet" kollegiyasiga kiritilgan va shu muassasadan maosh olishi, qolgan vakillarning moddiy ta'minoti esa ular safarbar etiladigan muassasalar tomonidan ta'minlanishi lozim bo'lgan. Komissiya har oyda o'z faoliyati yuzasidan kamida ikki marta "Turkpolitprosvet" oldida hisobot berishi shart edi [21, 207-208].

Turkiston o'lkasi keng aholisi qatlamlari o'rtasidagi savodsizlikni tugatish ishlari Savodsizlikni tugatish bo'yicha Turkiston favqulodda komissiyasining asosiy vazifasi etib belgilangan. Bu vazifalar jumlasiga quyidagilar kirgan:

- a) o'z sohasi bo'yicha tegishli ish rejalarini ishlab chiqishi va hayotga tatbiq etish;
- b) Tub joy aholiga imkon qadar yaqinlashish, ularni o'qitishning eng maqbul usullarini ishlab chiqish;
- v) o'zining ta'lim tarmoqlari uchun ta'lim dasturlarini ishlab chiqishi va o'quv qo'llanmalari ro'yxatini tuzish;
- g) ta'lim muassasalari uchun o'qituvchi kadrlarni tanlash;
- d) aholi o'rtasidagi savodsizlikni tugatish bo'yicha Turkiston o'lkasidagi partiya, xo'jalik tashkilotlari bilan muntazam aloqa o'rnatish, tegishli ishlarni muvofiqlashtirib borish;
- j) zarur moddiy va pul mablag'larini topish [22, 18].

Savodsizlikni tugatish bo'yicha tadbirlarni tezlik bilan amalga oshirish uchun Turkiston Markaziy Favqulodda Komissiyasi uyezd va shahar siyosiy ta'lim tashkilotlari qoshida favqulodda komissiyalar tashkil etgan. Uyezd (shahar) favqulodda komissiyasi tarkibi 5 kishidan iborat bo'lib, ular: 1) siyosiy ta'lim tashkiloti vakili (komissiya raisi), 2) uyezd ijroqo'mi vakili (shaharlarda shahar Soveti vakili), 3) partiya komiteti vakili, 4) komsomol tashkiloti vakili 5) "Qo'shchi" ittifoqi vakili [22, 12].

Savodsizlikni tugatish bo'yicha Turkiston Favqulodda Komissiyasi har bir savodsizlikni tugatish maktablarini malakali, ekspertizadan o'tkazilgan, Siyosiy ta'lim muassasalarida tegishli ro'yxatdan o'tgan o'qituvchilar, zarur darslik va o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlab berishi kerak edi. Ayni paytda mazkur komissiya barcha savodsizlikni tugatish maktablari bo'yicha metodik rahbarlikni amalga oshirar, buning uchun joylardagi organlari orqali har oyda kamida bir martadan savodsizlikni tugatish maktablari uchun metodik konferensiyalar va instruktajlar tashkil qilar edi.

Hodisalarga ob'yektiv baho berganda, tan olish kerakki, favqulodda komissiyalar oldiga qo'yilgan vazifalar o'ta murakkab edi. Og'ir siyosiy vaziyat hukm surgan sharoitda favqulodda komissiyalar minglab kishilarni savod chiqarish maktablari va kurslariga jalb etishlari lozim edi. Buning ustiga, dastlabki davrda bu kabi minglab kishilarni o'qitish uchun zarur binolar yetishmas, eng asosiysi – savod beruvchi malakali mutaxassislar ham yetarli emas edi. Ilk yillarda Turkiston ASSRda tashkil etilgan kechki maktablar va savodsizlikni tugatish to'garaklarida eng zarur jihozlar bo'lmish daftar, qalam va alifbo kitoblari etishmas edi [23, 34].

Savodsizlikni tugatish maktablari uchun yetishmayotgan o'qituvchi-mutaxassislarni qisqa muddatli o'quv kurslarida shoshilinch tayyorlashga kirishildi. Bunday qisqa muddatli kurslar uchun ham o'quv-metodik adabiyotlar zarur bo'lar ediki, bunday qo'llanmalarning o'zi yo'q edi. Bu kabi qiyinchiliklar Turkiston ASSRda sovet hokimiyatiga qarshi davom etayotgan qurolli qarshilik harakati, ochlik, vayrongarchilik sharoitida yanada og'irlashgan edi.

Turkistondagi sovet hukumati turli ma'muriy va g'oyaviy-siyosiy choralarni "harbiy kommunizm" siyosatining talab-qoidalarini keng qo'llagan holda savodsizlikni tugatish ishlariga keng xalq ommasini jalb etishga va bu tadbirni kampaniya darajasiga ko'tarishga muvaffaq bo'ldi. Bu vazifalarni hal etishga Turkiston o'lkasini sovetlashtirishdan o'ta manfaatdor bo'lgan Markaziy

*SEKTRAN – ruscha ЦЕКТРАН – (abbreviatura) Центральный комитет объединённого профсоюза работников железнодорожного и водного транспорта (Temir yo'l va suv transporti xodimlari birlashgan kasaba soyuzi Markaziy komiteti)

hukumat katta moddiy-ma'naviy yordam ko'rsatdi. Turkiston ASSRda katta yoshdagi aholini savodli qilish harakatini keng quloch yoydirish uchun RSFSRning markaziy shaharlaridan o'lkada o'ta taqchil bo'lgan kanselyariya tovarlari – daftar, qog'oz, qalam va boshqa zarur jihozlar keltirildi, bu maqsad uchun pul mablag'lari ajratildi. Masalan, 1920-yilning ikkinchi yarmida Turkiston respublikasi Savodsizlikni tugatish bo'yicha Favqulodda komissiyasi ehtiyojlari uchun RSFSR davlat byudjetidan 10 million so'm ajratiladi [16, 250].

Savodsizlikni tugatish maktablari uchun muallimlar tayyorlashga ham birmuncha e'tibor berildi. Qisqa vaqt ichida asosan mahalliy millatlardan 2 mingga yaqin muallim tayyorlandi. Shu bilan bir vaqtda, savodsizlikni tugatish kurslarini darsliklar va o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlash choralari ham ko'rildi. Kattalar uchun 300 mingga yaqin alifbe, jumladan, o'zbek tilida 140 mingga yaqin alifbe, shuningdek, mahalliy tillarda 40 ming qirqma alifbe nashr etildi [16, 250-251].

1920-yil oxirlarida Turkiston ASSRda qariyb 1000 ta savodsizlikni tugatish maktablari va kurslari faoliyat ko'rsata boshlagan edi. Ushbu yilda bu kabi maktab va kurslarni bitirganlar soni TASSR bo'yicha 70 ming kishiga etdi, ulardan 70 foizini mahalliy millat vakillari tashkil qildi [24, 39]. 1921-yilning oxirlarida birgina Toshkent shahrining o'zida 100 ta savodsizlikni tugatish maktablari faoliyat ko'rsatar edi. Ayni paytda Turkiston Respublikasi bo'yicha 1000 dan ortiq savodsizlikni tugatish maktablari, turli to'garaklar faoliyat ko'rsatayotgan edi [25, 271]. 1921-yilda savodsizlikni tugatish maktablari 50 mingdan ortiq katta yoshdagi aholi vakillarini qamrab olgan bo'lib, ularning 70 foizi mahalliy millat vakillari edi [11, 5].

Savodsizlikni tugatish kurslari uchun dastlabki o'qituvchilarni tayyorlashda (xususan, mahalliy millat vakillaridan) hamma joylarda vaqtinchalik tashkil etiladigan pedagogik kurslari ma'lum ahamiyatga ega bo'ldi. Bu kabi kurslar o'qish muddati 1,5 oylik, 6 oylik va 12 oylik shakllarda tashkil etilgan va asosan, 1918-yilning yozidan faoliyat ko'rsatishni boshlagan. Turkiston ASSRning turli uyezdlarida tashkil etilgan bu kabi tayyorlov kurslarini 1920-yilning 1-martidan 15-sentyabrigacha 1939 kishi tamomlagan, ulardan 1796 nafari yerli xalq vakillari edi [11, 9]. Lekin, bunga qaramay, savodsizlikni tugatish maktablari uchun o'qituvchi-mutaxassislar baribir etishmas edi. Qolaversa, bu kabi qisqa muddatli pedagogik kurslarda malakali o'qituvchilar tayyorlanmas edi.

Shu boisdan, Turkiston ASSR hukumati o'qish muddati ancha uzun bo'lgan doimiy faoliyat ko'rsatuvchi pedagogika bilim yurtlarini tashkil haqida qaror qabul qiladi. Bu kabi bilim yurtlarining dastlabkisi Musulmon o'qituvchilar instituti 1918-yil 1-iyunda Toshkent shahrida tashkil qilingan edi [26, 47]. 1920-yil oktyabr oyida Toshkent shahrida birdaniga to'rtta pedagogika bilim yurti ochildi. Ular: Timiryazev nomidagi Xalq Maorifi instituti (O'lka oliy pedagogika o'quv yurti, o'qish rus tilida olib borilgan), qirg'iz, o'zbek va tatar tillarida ta'lim beriladigan xalq maorifi institutlari edi. 1920-yilning noyabr oyida Samarqand shahrida ham mahalliy millat vakillaridan o'qituvchilar tayyorlash uchun Xalq maorifi instituti tashkil etildi [27, 160-161]. Shuningdek, o'qituvchi kadrlar tayyorlashni tezlashtirish maqsadida 7 ta bilim yurti, shu jumladan, 1 ta xotin-qizlar bilim yurti, 5 ta pedagogika texnikumi, 2 ta pedagogika bilim yurti va bir necha qisqa muddatli kurslar ochildi. Birgina 1921-yilning o'zida Turkiston Respublikasi bo'yicha 850 nafar o'qituvchi xodimlar tayyorlash qisqa muddatli kurslari ochildi. Shu bilan birga, o'lkada 7 ta maorif institutlari ish olib bordi va ularda 1145 nafar talaba ta'lim oldi. Lekin ularning ko'pchiligi rusiyzabon aholi vakillari edi [10, 349].

Biroq, yuqorida amalga oshirilgan ishlar "ommaviy savodsizlikni tugatish" deb atalgan bolsheviklarning keng ko'lamlı dasturini amalga oshirish yo'lidagi ilk qadamlar edi, xolos. TASSR Maorif Xalq Komissarligi huzuridagi Savodsizlikni tugatish bo'yicha Favqulodda komissiyasi hisob-kitoblariga ko'ra, 1920-yil oxirlarida Turkiston ASSRda savodsizlar 4 million 200 ming kishini tashkil etar edi. Qolaversa, savodsizlikni tugatish ishlari Turkiston o'lkasi qishloqlariga endigina kirib bormoqda edi [28, 56].

XULOSA

Savodsizlikni tugatish muammosiga oid manbalarni tahlil etish va nazariy ma'lumotlarni umumlashtirish asosida xulosa qilish mumkinki, XX asrning 20–30-yillarida sovet davlatidagi savodsizlikni tugatish jarayoni avvalo hukmron davlat siyosati o'laroq yuzaga kelgan, katta yoshdagi aholini savodli qilish maqsadiga qaratilgan ommaviy kampaniya ko'rinishidagi ijtimoiy harakat edi. Bu kampaniya bir-biriga bog'liq bo'lgan ma'rifiy, tarbiyaviy va siyosiy-mafkuraviy xususiyatlarga ega bo'ldi.

TARIX

Savodsizlikni tugatish siyosati birinchi navbatda xalq ta'limini yanada rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qildi, jamiyatning madaniy va iqtisodiy taraqqiyotiga keng yo'l ochdi. Shu bilan birga, savodsizlikni tugatish bo'yicha kampaniya respublikada sovet hokimiyatini qaror toptirish bo'yicha "inqilobiy" loyihalar doirasida ham keng tatbiq etildi va sovet hokimiyatining ushbu inqilobiy o'zgarishlari bolsheviklar siyosatining umumiy kontekstida bo'lib o'tdi, bu savodsizlikni tugatish usullari va shakllariga, uni amalga oshirishning asosiy natijalariga muayyan darajada ta'sir ko'rsatdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Смирнов И.С. Из истории строительства социалистической культуры в первый период Советской власти (октябрь 1917 - лето 1918). – Москва, 1949. – 176 с. (Smirnov I.S. From the history of the construction of socialist culture in the first period of Soviet power (October 1917 - summer 1918). - Moscow, 1949).
2. Карпов Г.Г. О советской культуре и культурной революции в СССР. – Москва, 1954. – 144 с. (Karpov G.G. On Soviet culture and the cultural revolution in the USSR. - Moscow, 1954).
3. Ким М.П. Коммунистическая партия – организатор культурной революции в СССР. – Москва, 1955. (Kim M.P. The Communist Party is the organizer of the cultural revolution in the USSR. - Moscow, 1955).
4. Мординов А.Е. О социалистическом содержании и национальной форме советской культуры. – Москва, 1960. (Mordinov A.E. On the socialist content and national form of Soviet culture. - Moscow, 1960).
5. Клочко В.Ф. Культурное строительство в советской деревне в годы второй пятилетки. – Москва, 1956. (Klochko V.F. Cultural construction in the Soviet countryside during the second five-year plan. - Moscow, 1956).
6. Андреева М.С. Коммунистическая партия – организатор культурно-просветительной работы в СССР (1917-1933 гг.). – Москва, 1963. (Andreeva M.S. The Communist Party is the organizer of cultural and educational work in the USSR (1917-1933). - Moscow, 1963).
7. Иванова А.М. Что сделала Советская власть по ликвидации неграмотности среди взрослых. – Москва, 1949. (Ivanova A.M. What did the Soviet government do to eliminate illiteracy among adults. - Moscow, 1949).
8. Зиновьев М. Как был выполнен ленинский декрет. – Москва, 1961. (Zinoviev M. How Lenin's decree was carried out. - Moscow, 1961).
9. Элькина Д.Ю. На культурном фронте. – Москва, 1959. (Elkina D.Yu. On the cultural front. - Moscow, 1959).
10. Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). Китоб 1. Ўзбекистон 1917–1939 йилларда. Масъул муҳаррирлар: Р. Абдуллаев, М. Раҳимов, Қ. Ражабов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. (History of Uzbekistan (1917-1991). Book 1. Uzbekistan in 1917–1939. Responsible editors: R. Abdullaev, M. Rahimov, Q. Rajabov. - Tashkent: Uzbekistan, 2019).
11. Культурное строительство в Туркестанской АССР (1917-1924 гг.) Сборник документов. Том 1. Культурное строительство в Туркестанской АССР в период установления Советской власти и гражданской войны (1917-1920 гг.) Сост. А.Г. Багрянцев, Р.С. Ерзина, А.М. Казанцева и др. – Ташкент: Узбекистан, 1973. (Cultural construction in the Turkestan ASSR (1917-1924) Collection of documents. Volume 1. Cultural construction in the Turkestan ASSR during the establishment of Soviet power and the civil war (1917-1920) Comp. A.G. Bagryantsev, R.S. Erzina, A.M. Kazantseva and others - Tashkent: Uzbekistan, 1973).
12. O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi (O'z MA), R.34-fond, 1-ro'yhat, 110-ish. (National Archive of the Republic of Uzbekistan (Uz MA), fund R.34, list 1, case 110).
13. Куманев В.А. Социализм и всенародная грамотность. Ликвидация массовой неграмотности в СССР. – Москва: Наука, 1967. (Kumanev V.A. Socialism and public literacy. Liquidation of mass illiteracy in the USSR. - Moscow: Nauka, 1967).
14. Известия ТуркЦИКа. 28 декабря 1918 года. (Izvestiya Turkitsik. December 28, 1918.)
15. Голованов А.А., Саидов И.М. Дехканство Узбекистана на историческом повороте второй половины XIX – первой трети XX вв. – Самарканд, 2007. (Golovanov A.A., Saidov I.M. Dehkans of Uzbekistan at the historical turn of the second half of the 19th - the first third of the 20th centuries. – Samarkand, 2007).
16. Ўзбекистон ССР тарихи. Тўрт томлик. Учинчи том. Улуғ Октябрь Социалистик революциясининг ғалабаси ва Ўзбекистонда социализм куриш (1917-1937 йиллар). Бош муҳаррир И.М. Мўминов. – Тошкент: Фан, 1971. (History of the Uzbek SSR. Four volumes. The third roof. Victory of the Great October Socialist Revolution and the construction of socialism in Uzbekistan (1917-1937). Editor-in-Chief I.M. Muminov. - Tashkent: Fan, 1971).
17. O'z MA, R.34-fond, 1-ro'yhat, 458 ish. (Uz MA. Fund 34, List 1, Case 458).
18. Манелис Б.Л. Из истории государственно-правовых взаимоотношений Туркестанской АССР и РСФСР. – Ташкент: Фан, 1966. (Manelis B.L. From the history of state-legal relations between the Turkestan ASSR and the RSFSR. - Tashkent: Fan, 1966).
19. Известия ТуркЦИКа. 17 декабря 1920 года. (Izvestiya Turkitsik. December 17, 1920).
20. O'z MA, R.34-fond, 1-ro'yhat, 2596-ish. (Uz MA. Fund 34, List 1, Case 2596).
21. O'z MA, R.25-fond, 1-ro'yhat, 360-ish. (Uz MA. Fund 25, List 1, Case 360).
22. Фаргона ВДА, 83-фонд, 1-рўйхат, 48-иш. (Uz MA. Fund 83, List 1, Case 48).
23. O'z MA, R.17-fond, 1-ro'yhat, 42. (Uz MA. Fund 17, List 1, Case 42).
24. O'z MA, R.15-fond, 1-ro'yhat, 1647-ish. (Uz MA. Fund 15, List 1, Case 1647).
25. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Тузувчилар: М.Жўраев, Р.Нуруллин, С.Камолов ва бошқ. – Тошкент: Шарқ, 2000. (New history of Uzbekistan. The second book. Uzbekistan during the Soviet era. Compilers: M.Juraev, R.Nurullin, S.Kamolov and others. - Tashkent: Sharq, 2000).
26. O'z MA, R.34-fond, 1-ro'yhat, 1905-ish. (Uz MA. Fund 34, List 1, Case 1905).
27. O'z MA, R.17-fond, 1-ro'yhat, 40-ish. (Uz MA. Fund 17, List 1, Case 40).
28. O'z MA, R.25-fond, 1-ro'yhat, 3262-ish. (Uz MA. Fund 25, List 1, Case 3262).